

## ZAMONAVIY GRAFIKADA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZI TALQINI

Istamtoshev Ulug‘bek

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Dastgoh va kitob grafikasi mutaxassisligi 1-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15032962>

*Annotatsiya. Maqola O‘zbekiston zamonaviy grafika san’atida tarixiy shaxslar obrazi tasvirlangan asarlarning o‘ziga xos badiiy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, tarixda iz qoldirgan buyuk shaxslar, ajdodlarimizing rassomlarimiz tomonidan yaratilgan asarlarining ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganildi.*

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy grafika, tarixiy shaxslar obrazi.

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗОВ ИСТОРИЧЕСКИХ ПЕРСОНАЖЕЙ В СОВРЕМЕННОЙ ГРАФИКЕ

*Аннотация. Статья была направлена на изучение специфических художественных аспектов произведений с изображением исторических личностей в современном графическом искусстве Узбекистана и научно-теоретически исследовала значение произведений, созданных художниками наших предков, великими личностями, оставившими след в истории.*

**Ключевые слова:** современная графика, образы исторических личностей.

## INTERPRETATION OF THE IMAGE OF HISTORICAL FIGURES IN MODERN GRAPHICS

*Abstract. The article was aimed at studying the specific artistic aspects of the works depicting the image of historical figures in modern graphic art of Uzbekistan, and studied the significance of the works created by great figures, artists of our ancestors, who left their mark on history.*

**Keywords:** modern graphics, the image of historical figures.

---

Mustaqillikdan so‘ng barcha sohada bo‘lgani kabi grafika san’atida ham tarixga, o‘tmishga murojaat etish va e’tiborning ortishi tarixiy janrni yanada yuksalishini belgilab berdi.

Tarixiy mavzuda asar yozuvchi muallifdan tasvir etilayotgan davr hayotini yokitarixiy shaxsning hayoti va faoliyatini tarix hujjatlari (arkiv materiallari, xotiralar va hokazo) asosida o‘rganish, shu davrning tarixiy koloritini haqqoniy ifodalash, personajlar nutqida va tashqi ko‘rinishida o‘sha davr kishilari tiliga xos xususiyatlarni aks ettirish talab etiladi.

Rassomning tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsadi, tomoshabinlarni tarixiy o‘tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularda o‘z xalqining tarixiy o‘tmishiga nisbatan hurmat tuyg‘usini uyg‘otish va shu yo‘l bilan ma’rifatli avlodni tarbiyalash, zamondoshlarni tarixiy o‘tmish voqealaridan, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatidagi ibratli tomonlardan saboq olishga undash, bugungi vogelikdagi ayrim noxush voqealari hodisalarga tarixiy o‘tmish voqealarini tasvirlash orqali munosabat bildirishdir.

Tarixiy shaxslar obrazini yaratishda esa rassomlar oldida mushkul vazifa turadi. Chunki kamdan-kam holatlardan mustasno tarzdagina tarixda ularning tashqi qiyofalari haqida hech qanday dalillar saqlanib qolmagan.

Buning natijasida o‘zida zamonasi ruhini timsollashtiruvchi umumlashma tarzdagi ramziy portretlar vujudga kelmoqda.

Bilamizki, grafika san‘atida ham tarixiy shaxslarning obrazlari ko‘pincha xalq bilan bog‘liq tarzda talqin qilinadi. O‘zbekistonning yirik tarixiy shaxslari o‘zining adabiy merosidan tashqari, xalq ta’limoti, ma’naviyat va o‘zbek milliyligini shakllantirishdagi o‘rni bilan ham alohida e’tirof etilgan.

Ular, ko‘pincha, xalqning fidoyiligi va kuchi bilan birlashtirilgan holda tasvirlanadi.

Ba’zan o‘zbek grafik san‘atida tarixiy shaxslarning obrazi simvolik tarzda ham talqin qilinadi. Bu tarzda rassomlar tarixiy shaxslarning obrazini allegorik uslubda yaratadilar.

Shuningdek, o‘zbek grafikasida tarixiy shaxslarning tasviri faqat ularning tashqi ko‘rinishini emas, balki ulug‘vor g‘oyalarini, siyosiy va ma’naviy ta’sirini ham o‘z ichiga oladi.

Bu esa san‘atning rivojlanishida yuksak ahamiyatga ega.

O‘zbek rassomlarining tarixiy janrga bo‘lgan munosabati va tarixiy shaxslar oblazlarining xarakterini ranglar va tasvirlar orqali ochib berilishi masalalari ko‘rib chiqilib, mashxur rassomlar ijodi orqali taxlil qilindi.

Mustaqillik yillarida realistik yo‘nalishda tarixiy shaxslarni va xalq qahramonlarini yaratish keksa va o‘rta avlod rassomlarining sermaxsul ijodida namoyon bo‘ldi.

Q.Vasharov, X.Ziyaxanov, E.Ishoqov, V.Apuxtin, M.Kagarov, M.Sodiqov, L.Zufariy, D.To‘xtaqlarov kabi ko‘plab rassomlar asarlarida bu yo‘nalish uchun an‘anaviy bo‘lgan tarixiy va janrlı kartinalar o‘z ifodasini topdi.



*Qutlug' Basharov.*

*Nodirabegim.*

*Qog'oz, tempera*

*Xurshid Ziyaxanov*

*Boburnoma.*

*Mato, moybo 'yoq*

*Dilbek To'xtaqulov.*

*Alisher Navoiy va Husayn Boyqora.*

*Qog'oz, sangina, ko'mir*

Zamonaviy grafika san'atida tarixiy shaxslar obrazini talqin qilish deganda biz rassomning tarixiy va madaniy merosni o'zlarining ijodiy uslubida qayta ifodalash jarayoni ekanligini tushunamiz. Bu jarayon, ayniqsa, qadimiylar, afsonalar yoki tarixiy shaxslar asosida yaratilgan tasvirlarni zamonaviy estetikaga moslashtirishni o'z ichiga oladi. Tarixiy shaxslarning obrazini asarlarda talqin etish grafika san'atini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi va tarixiy bilimlarni zamonaviy kontekstda jonlantiradi. Bu esa tomoshabinni yangi, qiziqarli va ko'p o'lchovli san'at asarlari bilan tanishtiradi. O'zbekiston grafik san'atida, ayniqsa XX asrning birinchi yarmida, milliy tarixiy shaxslar va ulug'lar ko'pincha klassik uslublarda tasvirlangan.

Rassomlar tarixiy o'zbek hukmdorlari, ilm-fan va madaniyat arboblari, shuningdek, xalqqa xizmat qilgan shaxslarni tasvirlashda an'anaviy uskuna va uslublarga murojaat qilgan. Masalan, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muxammad Bobur, Nodirabegim, To'maris kabi buyuk shaxslar, o'sha davr uslubiga mos holda, o'zbek xalqi uchun ahamiyatli yuksak maqomda tasvirlanadi.

O'zbekiston grafikasida tarixiy shaxslar tasvirini yaratishda zamonaviy texnologiyalar va uslublar ham qo'llanila boshlagan. Masalan, 1990-yillardan keyin, o'zbek grafik san'ati milliy tarixga yangicha yondashuvni o'z ichiga olgan. Qadimiylar, masalan, Nodirabegim, Zaxiriddin Muxammad Bobur yoki Alisher Navoiy, yangi estetikada, minimalist yoki abstrakt shakllarda tasvirlangan. Grafik rassomlar bu shaxslarni faqat tarixiy obraz sifatida emas, balki ularning g'oyalarini zamonaviy kontekstda ham talqin qilgan.

Aynan ushbu tarixiy mavzudagi kartinalarni kuzatar ekanmiz, rassomlar har bir asarni yaratish chog‘ida qanchalik beqiyos ilmiy ma’lumotlarga murojaat etgani va ko‘plab izlanishlar olib borishayotganligini anglab yetamiz.

Bu hol yosh rassomlar orasida ham keng quloch yozmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, yosh, iqtidorli rassomlar tarixiy mavzuga bo‘lgan qiziqishlari kuchli. Ular huddi ustoz rassomlar singari tarixiy kartinalarni yaratish, buyuk allomalarimiz, tarixiy voqeа-hodisalar, dunyoga mashhur shaxslarimizni o‘z asarlarida aks ettirish uchun ilmiy ma’lumotlarga, kitoblarga murojaat etibgina qolmay, muzey va teatrlarga borib o‘tgan zamon liboslari, rekvizitlar, turli ashyolar va shu kabi boshqa ko‘plab ma’lumotlarni to‘plab, shu asosida asarlar yaratishga intilishmoqda. Shu jarayon davomiyligida ular o‘z ustida ishlab, bilimlarini yanada oshirib, mustaqil ravishda ham ijod qilish bo‘yicha amaliy ishlarni bajarishmoqda.

San’at qaysi ko‘rinishda bo‘lmisin kishilarning xis-tuyg‘ulariga, ruhiyatiga ta’sir etuvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir ijodkor o‘z-o‘zicha izlanadi, o‘z-o‘zicha mehnat qiladi.

Ana shuning uchun ham san’at o‘ziga xos turlarga va janrlarga ega. Ular orasida tarixiy mavzudagi asarlar alohida e’tiborlidir desak mabolag‘a bo‘lmaydi.

## REFERENCES

1. Kitob grafikasida kompozitsiya hamda adabiyot asarlarini chuqurroq o‘rganishda illyustratsiyaning ahamiyati I.Yuldashev, B.Qurbanova Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7
2. Ўзбекистон санъати. Умумий тахрир остида. –Т.: Шарқ. 2001й.
3. Кўзиев Т. Тахрири остида Ижодимиз хақида гапирсак графика, ҳайкалтарошлик, аълбомлар туркуми. – Т.:2006й.
4. Zarifova, D. (2023). TEACHING TECHNOLOGY OF THE TOPIC OF PORTRAIT OF THE HUMAN HEAD IN PAINTING. Modern Science and Research, 2(10), 391-393.
5. Zarifova, D. O. qizi. (2023). SHARQ GRAFIKA SAN’ATIDA MAISHIY JANRNING O‘RGANILISHI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(9), 57–62. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1259>